



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 10 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 10

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№10 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-10>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Mashrapov Madorbek Zoxidbek o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AVTOMOBIL YO'LLARI SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH.....	5
2. Хошимова Юлдузхон Олимжонова СТОИМОСТЬ ТОВАРНОГО ЗНАКА В СИСТЕМЕ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ: ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ И ОЦЕНКА.....	15
3. Овулов Пўлатжон Илхом ўғли ҲУҚУҚ ВА МУОМАЛА ЛАЁҚАТИ, ДАВЛАТ ИММУНИТЕТИ – ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИНГ МУҲИМ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА.....	23
4. Шукурова Малика Шахобидинова ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚДА НИКОҲ ТУШУНЧАСИ ВА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	33
5. Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SUG'URTA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	45
6. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич СУД ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ: ҲОЛАТИ, ТАҲЛИЛИ, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	59
7. Maxmudov Alisher Abdusalimovich YEVRONA PROKURATURASI – ERKINLIK XAVFSIZLIK VA ODIL SUDLOV KAFOLATI..	66
8. Сафаев Мансурбек Илхомжонович ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ЗАРУРАТИ.....	73
9. Xudaykulov Feruzbek Xurramovich FIRIBGARLIK JINOYATIDA SUN'IY INTELLEKT JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA: QONUNCHILIK, AMALIYOT VA MUAMMOLAR.....	82
10. Баракаев Лазизжон Отакулович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МАХСУС ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛАРДАН Фойдаланишнинг ПРОЦЕССУАЛ ШАКЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ.....	93
11. Имомназаров Алишер Хасанович ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИ ТИЗИМИДА КЎЗДАН КЕЧИРИШНИНГ ЎРНИ ВА БОШҚА ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИ БИЛАН ЎЗARO НИСБАТИ ТАҲЛИЛИ.....	103
12. Қурбонов Шухратжон Шавкатжонович ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШНИНГ МОДДИЙ(ФАКТИК) АСОСЛАРИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МУАММОЛАРИ.....	113



12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini professori vazifasini bajaruvchisi,


Yuridik fanlar doktori (DSc)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: dr.profi114@gmail.com

FIRIBGARLIK JINOYATIDA SUN'IIY INTELLEKT JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA: QONUNCHILIK, AMALIYOT VA MUAMMOLAR

For citation: Khudaykulov Feruzbek Khurramovich. ARTIFICIAL INTELLIGENCE(AI) AS A MEANS OF COMMITTING CRIMES IN FRAUD: LEGISLATION, PRACTICE, AND PROBLEMS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17353181>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda jinoyat sodir etish vositasi tushunchasi, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilari ichida tutgan o'zni ochib berilgan. Ushbu maqolada MDHning ayrim davlatlari tadqiqotchilari sun'iy intellekt(SI)dan foydalanish bilan sodir etiladigan bir qator qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikning alohida hollarini tizimlashtirish va jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topdirishga oid ilmiy yondashuvlari va ba'zi olimlarning jinoiy huquqda sun'iy intellekt(SI)ni jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativlikdan zaruriy belgisiga aylanadigan "jinoyatni sodir etish vositasi" sifatidagi ilmiy yondashuvlari, buyondashuvlar asosida berilgan ilmiy asoslantirilgan takliflari bayon qilingan. Mazkur maqolada yuqoridagi ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, sun'iy intellekt(SI) ham keng, ham tor ma'noda jinoyat sodir etish vositasi tushunchasiga mos keladi, degan xulosaga kelingan. Birinchi holda, jinoyat sodir etish vositaga jonli va jonsiz narsalar kirishi mumkin bo'lgan joyda, sun'iy intellekt(SI) va uning huquqiy tabiatiga qanday yondashuvdan qat'i nazar, uni har qanday toifaga kiritilishi mumkinligini ilmiy asoslantirib berilgan. Ikkinchi holda, jinoyat sodir etish vositasini tor tushunish bilan sun'iy intellekt(SI) moddiy dunyoning obyektlari toifasiga kiritilishi lozimligini bayon qilingan. Sun'iy intellekt(SI)ning jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatini to'liq tadqiq qilish uchun uni jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgilari bilan munosabatlarini ko'rib chiqish lozimligi aytilgan. Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt ishtirokidagi jinoyat ishlari bo'yicha sud-tergov amaliyoti hali to'liq shakllanmagani sababli, ayrim sud-tergov amaliyotini tahlil qilish orqali iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda sun'iy intellekt(SI) – jinoyat sodir etilishini o'ziga xos osonlashtirib beradigan vosita sifati namoyon bo'lishi bog'liq bir nechta muammolar mavjudligi ta'kidlanib, mazkur muammolar ilmiy tadqiqotlarda munozarali ravishda muhokama qilinishi va ularning yechimini topish bevosita jinoyat sodir etish vositasi ta'rifini berishga o'z ta'sirini ko'rsatishi

aytilgan. Shuningdek, ushbu maqolada firibgarlikni sodir etish vosita sifatida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib mazkur jinoyat sodir etiladigan, mazkur jinoyatni sodir etishlashini aynan sun'iy intellekt(SI) osonlashtirib beradigan va javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) tarkibiga oid amaliy misolni keltirish keltirilgan. Shu bilan birga, klassik va zamonaviy jinoyat huquqi doktrinasini tadqiq etgan holda firibgarlik jinoyatida sun'iy intellekt jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati ajratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida keltirilgan firibgarlikni sodir etish vosita sifatida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib mazkur jinoyat sodir etishga oid nazariy hamda amaliy muammolar yoritilgan. Shu bilan birga, bu borada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: firibgarlik, sun'iy intellekt(SI), jinoyat sodir etish vositasi, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) belgisi, sun'iy intellekt(SI)ning firibgarlik jinoyati sodir etish vositasi sifatidagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati.

Худайкулов Ферузбек Хуррамович,

Исполняющий обязанности профессора кафедры Уголовное право,
криминологии и противодействия коррупции Ташкентского
государственного юридического университета,

Доктор юридических наук (DSc)

ORCID:<https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: dr.profi114@gmail.com

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК СРЕДСТВО СОВЕРШЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯ МОШЕННИЧЕСТВА: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО, ПРАКТИКА И ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье были широко использованы такие методы исследования как логический, системный, сравнительно-правовой. В частности, в первую очередь раскрывается понятие средства совершения преступления, его место среди факультативных признаков объективной стороны состава преступления. В данной статье изложены научные подходы исследователей некоторых стран СНГ к систематизации отдельных случаев уголовной ответственности за ряд деяний, совершаемых с использованием искусственного интеллекта (ИИ), и их отражению в уголовном законодательстве. Также представлены научные подходы некоторых ученых в области уголовного права к рассмотрению искусственного интеллекта (ИИ) как "средства совершения преступления," которое из факультативного признака объективной стороны состава преступления превращается в необходимый. На основе этих подходов изложены научно обоснованные предложения. В данной статье, исходя из вышеуказанных научных подходов, сделан вывод о том, что искусственный интеллект (ИИ) соответствует понятию средства совершения преступления как в широком, так и в узком смысле. В первом случае научно обосновано, что независимо от подхода к искусственному интеллекту (ИИ) и его правовой природе, в ситуации, когда средством совершения преступления могут быть как одушевленные, так и неодушевленные предметы, его можно отнести к любой категории. Во втором случае, при узком понимании средства совершения преступления, утверждается, что искусственный интеллект (ИИ) следует отнести к категории объектов материального мира. Для полного исследования своеобразного уголовно-правового значения искусственного интеллекта (ИИ) как средства совершения преступления необходимо рассмотреть его взаимосвязь с признаками объективной стороны состава преступления. В связи с тем, что в настоящее время судебно-следственная практика по уголовным делам с участием искусственного интеллекта еще не сформирована в полной мере, путем анализа некоторых судебно-следственных практик было отмечено, что существует несколько проблем, связанных с проявлением искусственного интеллекта (ИИ) как средства, своеобразно облегчающего совершение преступления в экономических преступлениях, и эти проблемы обсуждаются в

научных исследованиях, и поиск их решения непосредственно влияет на определение средства совершения. Также в данной статье приводится практический пример использования искусственного интеллекта (ИИ) в качестве средства совершения мошенничества, где ИИ облегчает совершение данного преступления, что является отягчающим обстоятельством (квалифицирующим признаком). Вместе с тем, на основе исследования доктрины классического и современного уголовного права, выделено особое уголовно-правовое значение искусственного интеллекта как средства совершения преступления в контексте мошенничества. Также освещены теоретические и практические проблемы совершения данного преступления с использованием искусственного интеллекта (ИИ) в качестве средства совершения мошенничества, указанного в Уголовном кодексе Республики Узбекистан. Вместе с тем, разработаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию уголовного законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: мошенничество, искусственный интеллект (ИИ), средство совершения преступления, обман, злоупотребление доверием, отягчающий (квалифицирующий) признак ответственности, специфическое уголовно-правовое значение искусственного интеллекта (ИИ) как средства совершения преступления мошенничества.

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,

Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology
and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law,

Doctor of Science in Law

ORCID:<https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: dr.profi114@gmail.com

ARTIFICIAL INTELLIGENCE(AI) AS A MEANS OF COMMITTING CRIMES IN FRAUD: LEGISLATION, PRACTICE, AND PROBLEMS

ANNOTATION

This article extensively uses logical, inductive, deductive, systematic, logical-legal, and comparative-legal methods. In particular, first of all, the concept of the means of committing a crime, the place of the objective side of the corpus delicti among the optional signs are revealed. In this article, the scientific approaches of researchers of some CIS countries to the systematization of individual cases of criminal liability for a number of acts committed with the use of artificial intelligence (AI) and their reflection in criminal legislation, as well as the scientific approaches of some scientists to the definition of artificial intelligence (AI) in criminal law as a "means of committing a crime," which is transformed from an optional to a necessary feature of the objective side of the corpus delicti, scientifically substantiated proposals are presented. In this article, based on the above scientific approaches, it is concluded that artificial intelligence (AI) corresponds to the concept of a means of committing a crime in both a broad and narrow sense. In the first case, it is scientifically substantiated that where the means of committing a crime can include both animate and inanimate objects, regardless of the approach to artificial intelligence (AI) and its legal nature, it can be classified into any category. In the second case, it is stated that with a narrow understanding of the means of committing a crime, artificial intelligence (AI) should be included in the category of objects of the material world. In order to fully investigate the specific criminal-legal significance of artificial intelligence (AI) as a means of committing a crime, it is necessary to consider its relationship with the features of the objective side of the corpus delicti. Currently, due to the fact that judicial and investigative practice in criminal cases involving artificial intelligence has not yet been fully formed, through the analysis of some judicial and investigative practice, it is noted that there are several problems related to the manifestation of artificial intelligence (AI) as a means of specific facilitation of the commission of a crime in crimes in the economic sphere, and it is said that these problems are controversially discussed in scientific research, and finding their solution directly affects the definition of the means of committing a crime. Also, this article provides a practical example of the qualifying composition of this crime, which facilitates the commission of this crime using artificial

intelligence (AI) as a means of committing fraud, and aggravates liability. At the same time, by studying the doctrine of classical and modern criminal law, the specific criminal-legal significance of artificial intelligence as a means of committing a crime in the crime of fraud is highlighted. Also, the theoretical and practical problems of committing this crime using artificial intelligence (AI) as a means of committing fraud, cited in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, are highlighted. At the same time, specific proposals and recommendations have been developed for improving the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: fraud, artificial intelligence (AI), means of committing a crime, deception, abuse of trust, aggravating (qualifying) characteristic of responsibility, specific criminal-legal significance of artificial intelligence (AI) as a means of committing a crime of fraud.

Zamonaviy jinoyat huquqida sun'iy intellekt(SI)ni jinoyat sodir etish vositasi sifatida tan olish mavzusi ilmiy tadqiqotlarda, monografiya va ilmiy maqolalarda olimlarni tobora ko'proq jalb qilmoqda.

Sun'iy intellekt(SI) tushunchasi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy funksiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan alohida axborot texnologiyalarini umumlashtiradi. Sun'iy intellekt(SI) algoritmlari turli xil ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlarini o'z ichiga olishi mumkin, bu esa odamning raqamli profilini yaratish, foydalaniladigan dasturiy ta'minotning turini va uning mumkin bo'lgan zaifliklarini aniqlashga imkon beradi [1, B. 54-61].

MDHning ayrim davlatlari tadqiqotchilari sun'iy intellekt(SI)dan foydalanish bilan sodir etiladigan bir qator qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikning alohida hollarini tizimlashtirish va jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topdirishga oid ilmiy yondashuvlarini ilgari surishmoqda[2, B. 55-58, 37-40]. Ba'zi olimlar jinoiy huquqda sun'iy intellekt(SI)ni jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativlikdan zaruriy belgisiga aylanadigan "jinoyatni sodir etish usuli yoki vositasi" sifatida ko'rishni taklif qilmoqdalar [3, B. 169-178].

Ayrim jinoyatlarda sun'iy intellekt(SI) jinoyat tarkibi obyektiv tomoning zaruriy belgi aylangan jinoyat sodir etish usuli sifatida namoyon bo'lishi mumkin, ammo u aynan firibgarlik jinoyatida jinoyat sodir etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat sodir qilish usuli turli so'z iboralari bilan ifodalanadi. Masalan, usul – "yo'l", harakat va yo'llar ketma-ketligi", "tartib", "tizim", "metod", harakatlar kompleksi(majmui)" va boshqalar.

O'zbek tili izohli lug'atida "deganda, "biror narsaga erishish usuli yoki yo'li" tushuniladi [4, B. 382-383].

Jinoyat sodir etish vositalari – bu jinoyat sodir etish jarayonida ishlatiladigan predmet(buyum)lar, moslamalar, mexanizmlar, asboblardir [5, B. 61]. Shu bilan birga, jinoyat-huquqiy ma'noda jinoyat vositalari jinoyat qonunida bevosita ko'rsatilgan va qilmishning umumiy ijtimoiy xavfini jiddiy oshiradigan, jinoyat sodir etishni osonlashtirish uchun ishlatiladigan ashyo (predmet)lar yoki ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy funksiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan alohida axborot texnologiyalaridir.

S.I.Ulezkoning fikricha, "Jinoyat sodir etish usuli, quroli va vositasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, qurol jinoyat sodir etish vositasining turli xil shakllardagi ko'rishini bo'lsa, vosita esa u yoki bu faoliyatda jinoiy qilmishni sodir etish vositalaridan biri hisoblanadi. Jinoyat sodir etish quroli vositaning bir shakli yoki vosita esa jinoyat sodir etish qurolining bir ko'rinishi bo'lishi mumkin" [6, B. 207].

Mamlakatimizning ba'zi milliy olimlarida ham shunga o'xshash nuqtai nazar mavjud, "Jinoyat sodir etish vositasi – bu jinoiy maqsadga erishish yo'lidagi barcha narsalar (bu ma'noda jinoyatchining qilmishi ham tajovuz vositasi sanaladi). Qurol – jinoyat sodir etish vositalarining turlaridan biri. Jinoyat sodir etishda foydalanilgan har qanday predmet(sovuc va o'qotar qurol, ochqich, buzish quroli va boshqa)lar" [7, B. 74].

Jinoyat sodir qilish qurolining, vositasining o'ziga xos jinoyat-huquqiy xususiyati va ahamiyati mavjud. Ularning tushunchalariga chalkashtirib ta'rif berish maqsadga muvofiq emas. Jinoyat sodir etish quroli vositaning bir turi bo'la olmaydi, chunki ularning asosiy faqrlovchi

xususiyatlardan biri qurol bilan jinoyat obyektiga bevosita zarar yetkazilsa, jinoyat sodir etish vositasi jinoyat obyektiga bevosita zarar yetkazmaydi, balki zarar yetkazilishini osonlashtirib beradi.

Sh.D.Xaydarov va X.R.Ochilovlarning fikricha, “Jinoyat sodir qilish quroli – shaxs jinoyat predmetiga yoki shaxsga bevosita ta’sir ko’rsatish uchun foydalangan moddiy ashyo. Jinoyat sodir qilish vositasi esa – shaxs jinoyat sodir qilishni yoki jinoyat izlarni yo’qotishni osonlashtirish uchun foydalangan tashqi dunyo ne’mati” [8, B. 37].

Ba’zi olimlar “Jinoyatni sodir etish vositalari – bu jinoyat obyektiga tajovuz qilayotganda, ayblanuvchi foydalanadigan moslashgan predmetlardir. Foydalanadigan vositalarning harakatlari, sodir etilayotgan jinoyatning jamiyat uchun xavf solish darajasini o’zgartiradi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi, ularni kvalifikatsiya qilinadigan belgilar qatoriga kiritadi” [9, B. 24], degan xulosaga kelishadi.

M.Usmonaliev va P.Bakunovlar “Jinoyat sodir qilish usuli aybdor ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilishda foydalanadigan usullar yig’indisidan iboratdir. Jinoyat sodir qilishda qurol vositalaridan foydalanish ham jinoyat sodir qilish usuli doirasiga kiradi.” [10, B. 192-193], deb, ta’kidlashadi. X.Abzalova esa “Qasddan odam o’ldirishda qurol, vosita, predmetlaridan foydalanish boshqalar hayoti uchun xavfli bo’lgan jinoyat sodir etish usuliga kiradi” [11, B. 85-86], degan xulosaga keladi. Yuqoridagi olimlarning ilmiy yondashuvlariga qo’shilmaymiz.

Xususan, jinoyat sodir qilish vositasi obyektiv tomon belgisi bo’lgan usul sifatida namoyon bo’lmaydi: 1) yuqoridagi olimlarning qarashlari jinoyat huquqidagi jinoyat sodir qilish usuli tushunchasiga berilgan ta’rifga muvofiq kelmaydi; 2) jinoyat sodir qilish usuli, quroli, vositasining o’ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati mavjud. Shu nuqtai nazardan ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, qiynab, azob berib o’ldirish maqsadida jabrlanuvchiga oshxona pichog’i bilan ketma-ket zarbalar berishda jinoyat sodir etish quroli (pichoq – qurol sifatida foydalanilgan boshqa narsa) jinoyat sodir etish usulini ifodalamaydi va uning doirasiga kirmaydi. Bu yerda jinoyat sodir qilish quroli va usulining o’zaro munosabatini ko’rish mumkin.

Klassik va hozirgi jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat sodir etish vositasini tor va keng ma’noda tushunishga oid ilmiy yondashuvlar ilgari suriladi.

Xususan, N.S.Tagansev “Jinoiy faoliyat turli xil jinoyat sodir etish vositalari orqali sodir etilishi mumkin. Bunday vositalar sifatida birinchi navbatda, jinoyat subyektning tanasi, ikkinchidan esa, tashqarida joylashgan moddiy dunyo narsalari va predmetlari bo’lishi mumkin.” [12, B. 815], deb ta’kidlaydi.

A.V.Stepanova fikricha, “Jinoyat faoliyatda jinoyatni sodir etish vositalariga nafaqat jonsiz narsalar, balki jonli narsalar ham, nafaqat tabiat kuchlari, balki ba’zi sharoitlarda hatto boshqa shaxs, xususan, aqli noroso holatda bo’lganlar ham kiritilishi mumkin” [13, B. 349-355].

A.B.Chugunokning fikricha, “Jinoyat sodir etish vositalariga oid ilmiy yondashuvlar bayon qilinayotganda jinoyat huquqida nomoddiy vositalar haqida gapirish mumkin emas, chunki jinoyat sodir etish vositalari jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisi sifatida qaraladi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, insoniyat jinoiy faoliyatining vositasi sifatida atrof-muhitning jonli predmetlari, masalan, maxsus mashqlar orqali o’rganilgan hayvon, qush, sudraluvchi bo’lishi mumkin.” [14, B. 101]

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, sun’iy intellekt(SI) ham keng, ham tor ma’noda jinoyat sodir etish vositasi tushunchasiga mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin. Birinchi holda, jinoyat sodir etish vositaga jonli va jonsiz narsalar kirishi mumkin bo’lgan joyda, sun’iy intellekt(SI) va uning huquqiy tabiatiga qanday yondashuvdan qat’i nazar, uni har qanday toifaga kiritilishi mumkin. Ikkinchi holda, jinoyat sodir etish vositasini tor tushunish bilan sun’iy intellekt(SI) moddiy dunyoning ob’ektlari toifasiga kiritilishi va maxsus o’rgatilgan va o’z egasining buyruqlarini bajargan hayvonlar bilan taqqoslash mumkin. Axir, aslida sun’iy intellekt(SI) har doim o’z egasining ma’lum maqsadlarini bajarish uchun yaratiladiku.

Sun’iy intellekt(SI)ning jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi o’ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatini to’liq tadqiq qilish uchun uni jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgilari bilan munosabatlarini ko’rib chiqish lozim. Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt ishtirokidagi jinoyat ishlari bo’yicha sud-tergov amaliyoti hali to’liq shakllanmagani sababli, ayrim sud-tergov amaliyotini tahlil

qilish orqali iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda sun'iy intellekt(SI) – jinoyat sodir etilishini o'ziga xos osonlashtirib beradigan vosita sifati namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda sun'iy intellekt(SI) – jinoyat sodir etilishini o'ziga xos ososlashtirib beradigan vosita sifati namoyon бўлишига ЖК Махсус қисмида ифодаланган қуйидаги жинойт таркибларини келтириш мумкин:

- firibgarlik (JK 168-moddasi 3-qismi “g” bandi);
- tovlamachilik (JK 164-moddasi);
- mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK 173-moddasi) va boshqalar.

Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo'lga kiritishda ifodalanib, buning ta'sirida mulkdor (uning vakili), mulkning boshqa egasi yoki vakolatli organ mulkni yoki unga bo'lgan huquqini boshqa shaxsga beradi, yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq; boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi [15].

JK 168-moddasi 5 ta qismdan iborat bo'lib, mazkur moddaning birinchi qismida asosiy tarkibli jinoyat tarkibi bo'lib, unda “Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish”, deb aytilgan. Ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida firibgarlikning javobgarlikni og'irlashtiruvchi jinoyat tarkibi nazarda tutilgan bo'lib, har jinoyatning asosiy jinoyat tarkibi belgilari javobgarlikni og'irlashtiruvchi jinoyat tarkibi belgilari bilan uzviy munosabatda bo'lib, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda asosiy jinoyat tarkibi belgilari birinchi navbatda inobatga olinadi. Ushbu moddaning beshinchi qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra “etkazilgan moddiy zararining o'zni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.”

Ma'lumki, JK 168-moddasida nazarda tutilgan firibgarlik jinoyati tasvirlovchi dispozitsiyadan iborat bo'lib, qonun chiqaruvchi unda o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishni jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgisi bo'lgan jinoyat sodir etish usuli – aynan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan amalga oshirilishini zaruriy belgi sifatida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutgan.

Firibgarlik jinoyatining obyektiv tomoni bilan qo'riqlanadigan o'zganing mulki yoki mulkiy huquqlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ushbu jinoyatning predmeti esa o'zganing mulki yoki o'zganing mulkiga bulgan huquq hisoblanadi.

Firibgarlining obyektiv tomoni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishda ifodalanadi.

M.X.Rustambayev “Firibgarlik jinoyatida tashki tarafdin mulkdor tomonidan mulkni “ixtiyoriy” ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga utkazish kuzatiladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa konuniy egasida mulkni yoxud mulkiy xukuklarni jinoyatchiga o'tkazish fikrini turdiradi.” [16, B. 436], deb ta'kidlaydi.

R.S.Altiyev fikricha, “Aynan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o'tkazish fikrini tug'diradi. Shu usulda jabrlanuvchining ongi va ixtiyoriga ta'sir etish yoki uning ishonchini suiiste'mol qilish orqali firibgar mulkni o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga o'tkazish maqsadiga erishadi. Bu yerda aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish talon-toroj qilishning zaruriy usuli sifatida gavidalanadi” [17, B. 57].

Firibgarlikda **aldash deganda**, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulkdor, mulkning boshqa egasiga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud bunday shaxslarni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi. Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumin bo'lgan har qanday holatlar bo'yicha ma'lumotlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning niyati, vakolati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi yoxud qonuniy asoslarda faoliyat yurituvchi tadbirkor sifatida ko'rsatishi va h.k.) taalluqli bo'lishi mumin. Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir

etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash va h.k. kiradi [15].

Firibgarlikda **ishonchni suiiste'mol qilish deganda**, aybdorning mulkdor, mulkning boshqa egasi yoki mulkni uchinchi shaxslarga berib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli boshqa shaxslar bilan ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqeyi yoki uning jabrlanuvchi bilan shaxsiy yoki qarindosh-urug'lik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin. Sudlarga tushuntirilsinki, firibgarlikda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkni yoki unga bo'lgan huquqni aybdor mulkdorligi yoki egaligiga ixtiyoriy ravishda beradigan aqli raso shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lishi shart. Aybdor tomonidan, bila turib, aqli noraso shaxsni yoki voqelik mohiyatini anglash qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, kichik yoshdagi bolaligi (14 yoshga to'lmaganligi), ko'zi ojizligi, ruhiy jihatdan norasoligi, alkogol, giyohvandlik vositasi, ularning analoglari yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli) shaxsni aldash va undan mulkini olish firibgarlik tariqasida emas, balki o'g'irlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim, chunki bunday hollarda shaxs mulk uning egaligidan chiqib ketayotganligini anglamaydi [15].

Firibgarlik jinoyati moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishda ushbu mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish real imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan tugallangan deb topiladi.

Firibgarlik jinoyati subyektiv tomondan qasddan, ya'ni aynan to'g'ri qasddan va g'araz maqsadda sodir etiladi.

Agar aldov shaxs tomonidan o'zganing mulkini qo'lga kiritishni yengillatish maqsadida ishlatilgan bo'lib, mulkni olib qo'yish jarayonida mulkdor, mulk egasi yoki boshqa shaxs uning asl niyatini sezib qolgan, aybdor buni angasada, biroq mulkdor yoki mulk egasining erkiga zid ravishda mulkni ushlab turishni davom ettirgan bo'lsa, qilmish talonchilik, mulkdor yoki mulk egasiga bildirmasdan mulk bilan yashiringan hollarda esa, firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim [15].

Firibgarlik jinoyatida sun'iy intellekt(SI) jinoyat sodir etish vositasi sifatida o'rganilganda biz sun'iy intellekt(SI)ni hech qanday xakerlik yoki DDoS hujumlari bilan bog'lamaymiz. Firibgarlik jinoyatining ushbu javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiy) tarkibi ancha kengroq va firibgarlik aynan sun'iy intellekt(SI) yordamida sodir etilganda uning ijtimoiy xavflilik darajasi yanada yuqori bo'ladi va firibgarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini jamiyatda yanada oshiradi.

Firibgarlikning ushbu javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) tarkibida umumiy obyekt shaklidan qat'iy nazar mulkchilik munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlari bo'lib, bevosita asosiy obyekt muayyan shaxsning mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi hisoblanadi. Uning ob'ektiv tomoni esa aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishda ifodalanadi.

Firibgarlikni sodir etish vosita sifatida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib mazkur jinoyat sodir etiladigan, mazkur jinoyatni sodir etishlashini aynan sun'iy intellekt(SI) osonlashtirib beradigan va javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) tarkibiga quyidagi amaliy misolni keltirish mumkin:

Masalan, o'zini bank xodimidan deb tanishtirgan ovoqli qo'ng'iroqlar orqali mulk egasidan bank to'lov kartasining ma'lumotlarini aytishni so'raydilar, shu aldov usuli bilan firibgarlar mulk egasining bank plastik kartasidan yoki bank hisobidan mablag'larni yechib olishga harakat qilishadi. Qo'ng'iroq qilgan shaxsning ovozi muayyan dasturlar orqali sun'iy intellekt(SI) orqali modellartiriladi, u har qanday paydo bo'ladigan savolga javob berish uchun dasturlantirilgan skriptga ega bo'ladi. Natijada sun'iy intellekt(SI) firibgarlik jinoyatidagi jabrlanuvchi bilan muloqotga kirishadi. Agar shaxsning barcha zarur shaxsiy ma'lumotlari olinsa, sun'iy intellekt(SI) darhol operatsiyalarni amalga oshirishi va mulk egasining shaxsiy mablag'lari, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulki talon-toroj qilinadi.

Yuqoridagi keys(vaziyat)da aynan sun'iy intellekt(SI) firibgarlik jinoyatini sodir etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi va uni sodir etilishini osonlashtirib beradi. Ushbu jinoyat sodir etish vositasi

yordamida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulki talon-toroj qilishdan iborat jinoiy tajovuz orqali jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ekt(o'zganing mulki)ga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazishning real xavfi ostida qoldiriladi.

Ushbu holatda jinoyat sodir etilishini osonlashtirish maqsadida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanishning afzalliklari beqiyosdir. Birinchidan, sun'iy intellekt(SI) dasturlashtirilgan skript yordamida vaziyatni darhol anglab olishi, savol yo'nilishni o'zgartirishi va jabrlanuvchiga tegishli ma'lumotlarni tahlil qilgan holda to'g'ri va aniq javob berilishi mumkin, bu esa qo'ng'iroq qilingan abonent, ya'ni jabrlanuvchida ishonchni hosil qiladi. Ikkinchidan, jinoyat sub'ekti va jabrlanuvchi o'rtasida sun'iy intellekt(SI) bo'g'in vazifasini o'taydi va jinoyatni sodir etilishini tizimli ravishda osonlashtirib beradi. Uchinchidan, bu esa jinoyat sodir etgan aybdorni topishni qiyinlashtiradi.

Ma'lumki, har qanday jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekt (inson hayoti va sog'lig'i, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), ayb shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar) kiritilganligi bilan belgilanadi. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi esa qilmish sodir etilishi holatlari bilan belgilanadi. Bunga jinoiy niyatning amalga oshirilganligi darajasi va bosqichlari jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og'irligi, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli va boshqalar.

Firibgarlikni sodir etish vosita sifatida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib ushbu jinoyat sodir etilganda asosan ko'p va juda ko'p miqdordagi zararlarning kelib chiqishi mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va dinamikasini yanada oshiradi.

Shuningdek, firibgarlik jinoyatida sun'iy intellekt(SI) jinoyat sodir etish vositasi foydalanib va uning yordamida sodir etilgan jinoyatlarni oldindan taxmin qilish imkoni bo'lmagani sababli va sun'iy intellekt(SI)dan foydalanishni oldini olishning imkoni bo'lmagani sababli, jamiyat va davlat uchun yanada xavfli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, fuqarolarning mulk huquqlarini va davlat iqtisodiyotini himoya qilish ham qiyinlashadi. Bundan tashqari, kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatning sun'iy intellekt yordamida sodir etilganini aniqlash va hisobga olish qiyin bo'ladi hamda jinoyatning sub'ektini qidirib topish ham qiyinlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyunda qabul qilingan 17-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-bandiga ko'ra axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish (JK 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandi) deganda, moliya, bank muassasalari, fondlar va sh.k. larda bo'lgan mulkni aldov yo'li bilan kompyuter texnikasi vositalari, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa shu kabi texnik qurilmalar yordamida manipulatsiya qilish orqali amalga oshiriladigan talon-toroj tushuniladi. Bunday firibgarlik kompyuter tizimida ishlov beriladigan, tegishli axborot tashuvchilarda saqlanadigan yoki ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha beriladigan axborotni o'zgartirish yo'li bilan ham, kompyuter tizimiga yolg'on axborot kiritish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib sodir etilgan o'g'irlik jinoyatidan farqlashda shuni nazarda tutish lozimki, firibgarlikda jabrlanuvchi aldov yoki ishonchi suiiste'mol qilinishi oqibatida mulkini yoki unga bo'lgan huquqni axborot texnologiyalaridan foydalanib aybdor egaligiga ixtiyoriy ravishda o'tkazadi, bunda mulk o'z egaligidan chiqib ketayotganligini jabrlanuvchi anglagan bo'lishi kerak. Agar shaxs kompyuter texnikasi yordamida qalbaki hujjat tayyorlab, so'ngra undan mulkni qo'lga kiritish uchun foydalangan bo'lsa, qilmishni JK 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

Oliy sudning yuqoridagi Plenum qarorida berilgan tushuntirishda axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish deganda "o'zganing mulkini aldov yo'li bilan kompyuter texnikasi vositalari, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa shu kabi texnik qurilmalar yordamida manipulatsiya qilish orqali" amalga oshiriladigan talon-toroj tushunilishi aytilgan.

Ammo, **"kompyuter texnikasi vositalari, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa shu kabi texnik qurilmalar"** – ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy

funktsiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan alohida axborot texnologiyalari yig'indisidan iborat bo'lgan va turli xil ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan, shuningdek, odamning raqamli profilini yaratish, foydalaniladigan dasturiy ta'minotning turini va uning mumkin bo'lgan zaifliklarini aniqlashga imkon beradigan sun'iy intellekt(SI) tabiat(mohiyati)ni, tushunchasini qamrab ololmaydi. Bunday noaniqliklar jinoyat sodir etilishini osonlashtiruvchi vosita sifatida sun'iy intellekt(SI) foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyatini kvalifikatsiya qilishda qator muammolarni keltirib chiqaradi va jinoyat qonunchiligining qonuniylik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplarini amalda noto'g'ri qo'llanilishi olib keladi.

Klassik va zamonaviy jinoyat huquqi doktrinasini tadqiq etgan holda firibgarlik jinoyatida sun'iy intellekt jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi quyidagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati ajratamiz:

1. Jinoyat sodir etish vosita sifatida sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib firibgarlik jinoyati sodir etilganda mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aynan usul (aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish) va vosita (firibgarlikni sodir etilishini osonlashtiradigan sun'iy intellekt(SI) belgilab beradi;

2. Sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib firibgarlik jinoyati sodir etilganda – jinoyat sodir etish vositasi javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiyaviy) belgisi sifatida namoyon bo'ladi;

3. Sun'iy intellekt(SI)dan foydalanib jinoyati sodir etilganda – jinoyat sodir etish vositasi jazo tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olinadi.

firibgarlik jinoyatida sun'iy intellekt jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi yuqoridagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati jinoyat qonunchiligini ifodalash uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchidan, JK VIII bo'lim "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da **"Sun'iy intellekt(SI)"** tushunchalarini quyidagicha bayon qilish taklif qilingan:

"Sun'iy intellekt(SI) – ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy funktsiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan va turli xil ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan, shuningdek, odamning raqamli profilini yaratish, foydalaniladigan dasturiy ta'minotning turini va uning mumkin bo'lgan zaifliklarini aniqlashga imkon beradigan alohida axborot texnologiyalari yig'indisidir."

Ikkinchidan, amadagi JK 168-moddasi 4-qismi "g" bandiga ga quyidagi qo'shimchalarni kiritilishi taklif qilamiz:

Firibgarlik:

a) ko'p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

g) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan yoki **ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy funktsiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan alohida axborot texnologiyalari yig'indisidan iborat sun'iy intellekt(SI)** foydalanib sodir etilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

ШУНИНГДЕК, sud-tergov organlari amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-bandini quyidagi o'zgarishlar bilan to'ldirish:

"Tushuntirilsinki, axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish (JK 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandi) deganda, moliya, bank muassasalari, fondlar va sh.k. larda bo'lgan mulkni aldov yo'li bilan kompyuter texnikasi vositalari, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa shu kabi texnik qurilmalar yordamida yoki **ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, odamning idrokiy funktsiyasini taqlid qilish mumkin bo'lgan alohida axborot texnologiyalari yig'indisidan iborat sun'iy intellekt(SI)** orqali

manipulatsiya qilish orqali amalga oshiriladigan talon-toroj tushuniladi. Bunday firibgarlik kompyuter tizimida ishlov beriladigan, tegishli axborot tashuvchilarda saqlanadigan yoki ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha beriladigan axborotni o'zgartirish yo'li bilan ham, kompyuter tizimiga yolg'on axborot kiritish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin.", degan mazmundagi tushuntirish berilishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Жарова А.К. Искусственный интеллект – средство или способ совершения мошенничества в сфере компьютерной информации? // Государство и право. 2023. № 2. С. 54–61. (Jarova A.K. Artificial intelligence – a means or a method for committing fraud in the field of computer information? // State and Law. 2023. No. 2. P. 54–61.)
2. Ефремова М.А., Лопатина Т.М. Робототехника в уголовном законодательстве Российской Федерации // Росс. следователь. 2021. № 11. С. 55–58. DOI: 10.18572/1812-3783-2021-11-55-58; Бегишев И.Р. Международно-правовые основы регулирования искусственного интеллекта и робототехники // Междунар. публичное и частное право. 2021. № 1. С. 37–40. DOI: 10.18572/1812-3910-2021-1-37-40 (Efremova M.A., Lopatina T.M. Robotics in the Criminal Legislation of the Russian Federation // Ross. Investigator. 2021. No. 11. pp. 55–58. DOI: 10.18572/1812-3783-2021-11-55-58; Begishev I.R. International Legal Framework for Regulating Artificial Intelligence and Robotics // International Public and Private Law. 2021. No. 1. pp. 37–40. DOI: 10.18572/1812-3910-2021-1-37-40)
3. Грачева Ю.В., Арямов А.А. Роботизация и искусственный интеллект: уголовно-правовые риски в сфере общественной безопасности // Актуальные проблемы рос. права. 2020. № 6. С. 169–178. DOI: 10.17803/1994-1471.2020.115.6.169–178 (Gracheva Yu.V., Aryamov A.A. Robotization and artificial intelligence: criminal-legal risks in the field of public safety // Actual problems of Russian law. 2020. No. 6. pp. 169–178. DOI: 10.17803/1994-1471.2020.115.6.169–178)
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (A.Madvaliev tahriri ostida). -T., 2006. Ikkinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – B.382-383. (Explanatory dictionary of the Uzbek language (edited by A.Madvaliev). -T., 2006. Volume 2. "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House. - P.382-383.)
5. Бабий Н.А. Уголовное право Республики Беларусь. Общая часть. - Минск, 2000.-С. 61. (Babiy N.A. Criminal Law of the Republic of Belarus. General Part. - Minsk, 2000.-P. 61.)
6. Актуальные проблемы Общей части уголовного права: учебник / отв. ред. И. А. Подройкина, И. А. Фаргиев. – Москва: Проспект, 2019. – С. 207. (Current Issues of the General Part of Criminal Law: textbook / ed. I. A. Podroikina, I. A. Fargiev. – Moscow: Prospect, 2019. – P. 207.)
7. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. – B. 74. (Criminal Law. (General Part) Textbook. Responsible Editor: Ph.D. (PhD) Kh.Ochilov – T.: Adolat Publishing House, 2020. – P. 74.)
8. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – B.37. (Ochilov Kh.R., Khaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Criminal Law" (General Part). Textbook – T.: TSYU Publishing House, 2021. – P. 37.)
9. Irkaxodjaev A.K., Xolikulov U.Sh Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYI nashriyoti, 2007. – B. 24. (Irkakhodjaev A.K., Xolikulov U.Sh. Scientific foundations of qualification of crimes. Textbook. – T.: TDYI publishing house, 2007. – P. 24.)
10. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik – Tashkent: Nasaf, 2010. – B. 192-193. (Usmonaliyev M., Bakunov P. Criminal law. General part: Textbook – Tashkent: Nasaf, 2010. – P. 192-193.)
11. Абзалова Х.М. Уголовно-правовые и криминологические аспекты борьбы с убийствами: дис. ... д-ра юрид. наук: 12.00.08 / Абзалова Хуршида Мирзиюатовна – Ташкент, 2020. – С. 85-86. (Abzalova H.M. Criminal-legal and criminological aspects of the fight against murders: dis. ... Doctor of Law: 12.00.08 / Abzalova Khurshida Mirziyatovna - Tashkent, 2020. - P. 85-86.)

12. Таганцев Н.С. Русское уголовное право. - 2-е изд., пересмотр. и доп. - СПб.: Гос. тип., 1902. - Т. 1. – С 815. (Tagantsev N.S. Russian criminal law. - 2nd ed., revised and supplemented. - St. Petersburg: State type, 1902. - V. 1. - P. 815.)
13. Степанова А.В. Взаимосвязь искусственного интеллекта как средства совершения преступления и иных субъективных признаков состава преступления // Образование и право. 2021. №5. – С. 349-355. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-iskusstvennogo-intellekta-kak-sredstva-soversheniya-prestupleniya-i-inyh-subektivnyh-priznakov-sostava-prestupleniya> (Stepanova A.V. The relationship between artificial intelligence as a means of committing a crime and other subjective signs of a crime // Education and Law. 2021. No. 5. - P. 349-355. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-iskusstvennogo-intellekta-kak-sredstva-soversheniya-presupleniya-i-inyh-subektivnyh-priznakov-sostava-presupleniya>)
14. Чугунок А.Б. Понятие и значение орудий и средств совершения преступления в уголовном праве // Вопросы юридической техники в уголовном и уголовно-процессуальном законодательстве: сб. науч. ст. - Ярославль: Изд-во «Ярослав». -1997. – С. 101. (Chugunok A.B. Concept and meaning of instruments and means of committing a crime in criminal law // Issues of legal technique in criminal and criminal procedural legislation: collection of scientific articles. - Yaroslavl: Yaroslav Publishing House. - 1997. - P. 101.)
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-6523582>// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2023-yil 23-iyun, 17-son. 4-band, 5-6-band, 16-band. (Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan “On Judicial Practice in Fraud Cases” // <https://lex.uz/ru/docs/-6523582>// National Database of Legislative Documents, June 23, 2023, No. 17. Paragraph 4, paragraphs 5-6, paragraph 16.)
16. Rustambaev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus kism / M.Rustambaev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – B. 436. (Rustambaev M.Kh. Comments to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special section / M.Rustambaev. – Tashkent: “Legal Literature Publishing”, 2021. – P. 436.)
17. Altiyev R.S. Firibgarlikning jinoyat huquqiy va kriminologik jihatlari. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. –Toshkent: 2020. – B. 57. (Altiyev R.S. Criminal legal and criminological aspects of fraud. Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)...diss. –Tashkent: 2020. – P. 57.)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000